

ZARDUSHTIYLIK DINIDA ATROF-MUHIT MASALASI

Egamberganova Matluba Jobborgonovna,
Urganch innovatsion universiteti “Ijtimoiy gumanitar
fanlar va pedagogika” fakulteti dotsenti v.b., PhD

Аннотация:

Ushbu maqolada Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sanalmish “Avesto”da tabiatga bo‘lgan munosabatning yoritilishi, muqaddas unsurlar masalasi xususida ma’lumotlar keltirilgan.

Калит сўзлар: Zardushtiylik, “Avesto”, 4 unsur, makruh, Vendidat.

Аннотация:

В данной статье представлены сведения по вопросу о сакральных элементах и объяснении отношения к природе в «Авесте», священной книге зороастризма.

Ключевые слова: Зороастризм, «Авеста», 4 стихии, макрух, Вендидат.

Abstract:

In this article, information is presented on the issue of sacred elements and the explanation of the relationship to nature in the "Avesta", the holy book of Zoroastrianism.

Key words: Zoroastrianism, "Avesta", 4 elements, makruh, Vendidat.

Zardushtiylik eng qadimgi dinlardan bo‘lib, bu din mil.av. VII-VI asrlarda paydo bo‘lgan. Zardushtiylik paydo bo‘lgan davr birinchi sinfiy jamiyat, ya’ni quldorlik davri endi paydo bo‘layotgan davr edi. U urug’-qabilachilik tuzumi yemirilib aholi qullar va quldorlarga, zolim va mazlumlarga bo‘linayotgan davr bo‘lgan. Bu din eng avval O‘rta Osiyo, so‘ng Eron, Ozarbayjonda qaror topgan edi.

Zardushtiylik bilan bog‘liq ekologik konsepsiyalar tizimida nafaqat tevarak-atrof, shu bilan birga insonning o‘zining pokligi borasida qayg‘urilgan. Chunonchi, “Avesto”da doimiy badantarbiya bilan shug‘ullanish, kunda yuz-qo‘lni bir necha marta yuvish, qo‘lni yuvmasdan turib tananing boshqa joyini ushlamaslik, sochni toza tutib tirnoqlarni tozalab turish maslahat berilgan. “Avesto” ning “Vendidot” qismining 17-bobida shaytonning najosati to‘planadigan va kesib tashlanadigan

tirnoq va sochni nima qilish kerakligi to'g'risida yo'l-yo'riq berilgan[1]. Soch va tirnoqlarning afsungarlik xossalari haqidagi zardushtiylik qarashlari izlari xalqimiz hayotida bugungi kungacha saqlanib qolgan. Axborotchilarning fikricha, tirnoqlarni olganda chekka yerga tashlash kerak.[2]

Zardushtiylik ta'limotida 4 unsur: suv, tuproq, olov, havo muqaddas sanalib, har qanday ko'rinishda ularni iflos qilish qoralangan. Shu jumladan, suv muqaddas unsur sanalib, avvalo, uning tozaligiga alohida e'tibor qaratilgan. Buning uchun suv manbalari – daryolar, ko'llar yoki quduqlar har qanday nopokliklardan qat'iy himoya qilingan. Agar marosimiy nopok bo'lgan qandaydir narsani yuvish kerak bo'lsa, suv maxsus joyga to'plangan, lekin shunda ham nopok narsa to'g'ridan-to'g'ri suv bilan yuvilmagan. Bunda nopok narsa avval sigir siydigi bilan yuvilib, quyoshda yoki qumda quritilgan va so'ngra yakuniy poklash maqsadida suv bilan yuvilgan. Shuningdek, yomg'ir yoqqan paytda tashqariga chiqish taqiqlangan, chunki bu bilan suvni va yerni "makruh" qilib qo'yish mumkin, deb o'ylaganlar. Suvni isrof qilish va bulg'ash og'ir gunoh hisoblangan. "Avesto"da bu borada "Pokiza suv va yonib turgan olov oldida gustohlik qilgan zotning do'zaxda topguvchi jazosi bu dunyoning jamiyki dardu ozorlaridan mudhishdir", [3] – deyilgan.

Zardushtiylarda tevarak-atrofni doimo toza saqlash, tabiat holati bilan bog'liq jarayonga xalal bermaslik – zardushtiylik ezgu amalining bir qismidir. Jamoaning barcha a'zolari, shu jumladan, yoshlar tabiatni asrash va go'zallashtirish ruhida tarbiyalanganlar. Ular yoshligidan ko'chat o'tqazish, uni parvarishlash, ko'kalamzorlashtirish, bog'-rog'lar barpo etish, ariq va hovuzlarni iflos qilmaslikka o'rgatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. — «Шарк», 2001. – Б. 169–170.
2. Dala axboroti. Boltayeva Qurvonjon. Xonqa tumani. 2024-yil.
3. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. — «Шарк», 2001. – Б. 122.